



TERMIZ IQTISODIYOT VA
SERVIS UNIVERSITETI

TISU ILMIY TADQIQOTLARI XABARNOMASI

ILMIY-USLUBIY JURNAL
ISSN 2992-9016

№1/2026

Muassis:
TERMIZ IQTISODIYOT VA
SERVIS UNIVERSITETI

TISU ilmiy tadqiqotlari xabarnomasi

Ilmiy-uslubiy jurnal

Bosh muharrir:

Sattarov Abdusamat
Umurqulovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Qobulov Eshbolta Atamuratovich

Mas'ul kotib:

Turayev Baxtiyor Ergashevich

Dizayner:

Meyliqulov Shahboz
Xolmamatovich

**Jurnal bir yilda to'rt marotaba
nashr etiladi**

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining 2023-yil 1-martdagi № 066379-raqamli guvohnomasi bilan ro'yxatga olingan va O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 8-maydagi 370/5-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan hamda iqtisodiyot fanlari bo'yicha dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal "Termiz Publishing center" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Bosishga ruxsat etildi:

22.12. 2025.

Qog'oz bichimi: 60x84 1/8

"Times New Roman" garnitirulasi.

Ofset bosma.

Ofset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog'i: 11.

Adadi 100 nusxa.

Bahosi kelishilgan narxda.

Buyurtma № 4.

Jurnalning elektron shakli bilan

<https://scientific.tues.uz>

web saytida tanishish mumkin.

Tahririyat manzili:

Termiz sh., "Yulduz" MFY,
"Ibn Sino" ko'chasi, 38B-uy.

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

Ixtisham Ul-Haq – i.f.d., prof. (Pokiston)

L. Narrada Gamage – i.f.d., prof. (Shri Lanka)

Maxmudov N.M. – i.f.d., prof.

Xudoyqulov S.K. – i.f.d., prof.

Pardayev J.M. – i.f.f.d., (PhD).

Absamatov A.E. – i.f.n., dots.

Eshkarayev S.Ch. – k.f.f.d. (PhD), dots.

Ruzmetov B. – i.f.d. prof.

Xudoyqulov X.X. – i.f.d. (DSc), prof.

Abdullayev I.S. – i.f.d., prof.

Xotamov O.Q. – i.f.d., prof.

Otamurodov Sh.N. – i.f.d. (DSc), dots.

Yarmatov Sh. Ch. - i.f.f.d. (PhD).

Mamadjanova T.A. – i.f.f.d. (PhD), dots.

Shodiyev A.A. – i.f.f.d. (PhD).

Jurayev X.A. – i.f.f.d. (PhD), dots.

Xakimov Z.I. – i.f.f.d. (PhD).

Amonov M.O. – i.f.f.d. (PhD).

Absamatov A.E. - i.f.f.d. (PhD).

Rahmatullayev B.Ch. – i.f.f.d. (PhD).

Namozov G'.Sh. – i.f.f.d. (PhD).

MUNDARIJA

SH.E.BOBOMURATOVA

O'zbekiston va uning chegara mamlakat hududlarida til siyosati.....4

D.MUQUMOVA

Ja'far Muhammad Termiziyning "Mendagi Boysun" she'ri: lingvistik tahlil.....12

D.B.IBODULLAYEVA

O'zbek va ingliz tillaridagi teatr atamalarining chog'ishtirma tahlili.....15

Z.M.AMIRKULOVA

"Panoh" hikoyasida tarixiy voqelik va badiiy talqin uyg'unlashuvi.....18

M.A.MEYLIQULOVA

O'quvchilarda adabiy nutqiy kompetensiyani rivojlantirish masalalari.....22

SH.A.DONAYEVA

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda 4K modelining ahamiyati.....25

G.E.TURAYEVA

Texnologiyalashgan jamiyatda bo'lajak o'qituvchilarning axloqiy tarbiyasini shakllantirish28

M.X.XAYDAROVA

Magistratura talabalarining mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etish.....31

F.A.XAYITOVA

O'quvchilarda kreativ o'qish madaniyatini shakllantirishning milliy va jahon tajribasi.....35

D.R.YUNUSOV, J.I.UMIROV

Fanni o'qitishda interfaol ta'lim metodlaridan foydalanish.....38

F.E.JOMONQULOVA, S.B.UZAKOVA

Yoshlarni axborot xurujlaridan asrash, ularda axborot imunitetini shakllantirishda zamonaviy usullardan foydalanishning o'rni.....42

U.A.TASHBAYEVA

Boshlang'ich sinflarda bolalar adabiyotini o'rgatishda mustaqil ta'lim topshiriqlaridan foydalanish metodikasi.....47

SH.T.TOSHOVA

Talabalarda sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini takomillashtirishning didaktik imkoniyatlari.....51

R.I.ESONOVA, N.M.SALOXITDINOVA

Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni 4K modeli asosida tashkil etish metodikasi va baholash mexanizmlari.....54

G.Z.ERMATOVA, G.E.TURAYEVA

Elektron resurslar asosida ona tili va o'qish savodxonligi fanlarini o'qitish samaradorligini oshirish usullari.....58

D.D.NORQUVATOVA, N.M.SALOXITDINOVA

STEAM yondashuvining boshlang'ich matematika ta'limidagi ahamiyati.....65

M.O.ZARIPOVA, N.M.SALOXITDINOVA

Zamonaviy ta'limda baholash tizimlarining transformatsiyasi va uning ta'lim sifatiga ta'siri.....68

M.A.NORBOSHEVA, N.ABDIYEVA

Giperaktiv bolalar bilan olib boriladigan psixologik-pedagogik ishlar.....72

G'A.MAMARAJABOV

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda hunarmandchilikni rivojlantirishning huquqiy asoslari va amaliy tajriba.....76

T.J.YARMATOV, F.J. YARMATOV

Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu Lug'atit Turk" asari etnofolklor manba.....80

SH.T.YAKUBOVA

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik madaniyat shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari.....83

N.B.RAUPOVA

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining milliy qadriyatlarga bo'lgan munosabatini shakllantirish metodikasi ("Qutadg'u bilig" va "Hibat ul-haqoyiq" dostonlari namunalari misolida).....86

M.SH.BURIYEVA

The role of code-switching in Uzbekistan's diverse society: identity and cultural exchange.....91

Z.M.ALLAYEV

Traditions of dream interpretations in linguoculturology.....96

Z.F.ERGASHEVA, G'Y.SALOMOV

Ona-tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarning axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi.....99

L.A.RAIMOV

A comparative analysis of ai and human translation in advertising texts.....103

A.A.QARAQULOV

Mengziyo Safarov qissalarida ona-tabiatning poetik manzarasi.....107

N.A.UMAROVA

Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlar darslarida loyiha faoliyatini tashkil etish nazariyasi va metodikasi.....112

M.T.MENGNAROVA

Ingliz va O'zbek tillaridagi rang komponentli maqollarda madaniy birliklarning ahamiyati.....116

I.B.JURAEV

The effect of authentic materials on vocabulary acquisition in english classes.....120

D.A.BADALOV

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda, klaster metodida yondashish.....126

F.J. YARMATOV, T.J. YARMATOV

Dostonchilik an'analari shakllanishining tarixiy asoslari.....130

M.O.BEGALIYEVA

Pattakesar.....135

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
“Tarix” kafedrası katta o‘qituvchisi, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Begaliyeva Mexriniso Olímnazarovna
E-mail: begaliyevamexriniso@gmail.com

PAT'TAKESAR

ANNOTATSIIYA

O‘rta Osiyoga Rossiya imperiyasi hukmronligi davrida sayyohlar, harbiy amaldorlar, sharq tillarini yaxshi biladigan sharqshunos olimlar kelgan va ular tomonidan o‘lkaning tarixi, geografiyasi, etnografiyasi va boshqa sohalariga oid juda ko‘plab ilmiy maqolalari, tarixiy kitoblari chop etilgan. Mazkur ma‘lumotlar orasida Buxoro amirligining sharqiy qismi hisoblangan Surxon vohasi, uning shaharlari tarixi haqida ham qimmatli ma‘lumotlarni uchratishimiz mumkin. Mazkur maqolada manbalar va tarixiy adabiyotlar asosida Buxoro amirligining asosiy tayanch chegara nuqtalaridan biri bo‘lgan Termiz Pattakesari qishlog‘i tarixi, uning Buxoro amirligidagi geografik o‘rni, harbiy-strategik va savdo iqtisodiy ahamiyati yoritilgan.

Tayanch so‘zlar: Buxoro amirligi, Termiz, Kelif, Kerki, Pattakesar, Surxon, Amudaryo, Afg‘oniston, Rossiya imperiyasi.

ПАТТАКЕССАР

АННОТАЦИЯ

В период господства Российской империи помимо путешественников, военных чиновников Среднюю Азию посещали русские учёные, которые хорошо владели восточными языками. По исследованиям этого края этими учёными написаны немало научных статей, исторические книги, посвящённые истории, географии, этнографии, и другим отраслям этого края. Среди приведённых данных можно встретить ценные сведения о Сурханском оазисе, истории городов, которые являлись восточной частью Бухарского эмирата. Также в статье, на основе источников и исторической литературы освещены история Термеза – Паттакезара его географическая роль, военно-стратегическое и торгово-экономическое значение в Бухарском эмирате. являющейся основным пограничным оплотом Бухарского эмирата.

Ключевые слова: Бухарское эмиратство, Термез, Келиф, Керки, Паттакесар, Сурхан, Амударья, Афганистан, Российская империя.

PAT'TAKESAR

ANNOTATION

Tourists, military officers, and oriental scientists who were fluent in Oriental languages came to Central Asia in the period of the reign of the Russian Empire. They many scientific articles and historical books that belong to the the history, geography, ethnography and other fields of the region have published by them. Among these data we can find valuable information about the history of the Surkhandarya oasis, which is considered the eastern part of the Bukhara Emirate, and its cities. It is illuminated history of Termez-Pattakesar where is one of the main base boundary points of the Bukhara Emirate, its geographical position in the Bukhara Emirate and military-strategic and trade-economic significance, based on sources and historical literature in this article.

Key words: Bukhara emirate, Termez, Kelif, Kerki, Pattakesar, Surkhandarya, Amudarya, Afghanistan, Russian Empire.

KIRISH

Termiz o‘zining tarixi, madaniyati va qulay strategik hududda joylashganligi bilan ajralib turgan. Shu munosabat bilan Chor Rossiyasi bu hududning barcha sohalarini o‘rganishni tashkil qilgan. Termizga ko‘plab rus sayyohlari, injenerlari, olimlari kelib faoliyat

olib borgan hamda ular o‘z esdaliklarida bir qator tarixiy ma‘lumotlarni keltirib o‘tishgan. Bu ma‘lumotlarda ayniqsa, dastlabki rus harbiy manzilgohi Pattakesar haqida batafsil ma‘lumotlar berilgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Bizga yaxshi ma‘lumki, Rossiya imperiyasi istilosidan

so'ng Turkiston o'lkasini har jihatdan o'rganish muhim ahamiyat kasb etgan. Ayniqsa, Surxon vohasini tarixiy manbalar va adabiyotlar orqali tadqiq qilish muhimdir. Surxon vohasi tarixini o'rganishda bevosita Turkiston general gubernatorligi homiyligi ostida chiqqan "Turkestanskiy sbornik" to'plamini keltirib o'tish mumkin. Mazkur to'plamda vohaning tarixiy geografik o'rni, shaharlar tarixi, aholi joylashuvi, qishloq xo'jaligi, shaharlarning ichki va tashqi savdo aloqalari tarixi tahlili keltirilgan. To'plamning mazkur sonlarda № 497, 474, 504. Termiz- Pattakesari tarixi rus sharqshunoslari tomonidan keltirilgan ma'lumotlari tahlil qilingan. Shuningdek, Turkiston o'lkasida birinchi bo'lib vaqtli matbuot sifatida chiqqan "Turkestanskiy vedomosti" gazetasida e'lon qilingan maqolalarni ham keltirib o'tish mumkin. Gazetaning 1910-yil № 210 sonida Pattakesarda sanoatning rivojlanishi, temir yo'lining kirib kelishi va savdo aloqalari tarixi haqida maqolalar e'lon qilingan. Ushbu to'plam va gazeta sahifalarida Surxon vohasi tarixi ayniqsa, Termiz -Pattakesar tarixi haqidagi o'z ma'lumotlarini e'lon qilgan rus harbiy injeneri, sharqshunosi D.N.Logofetning asarlari ham tadqiq qilib o'tilgan.

Tahlil va natijalar. Rossiya imperiyasi mustamlakachiligining dastlabki kunlaridanoq O'rta Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish va bu orqali sug'orish tizimini kengaytirish, shuningdek, strategik jihatdan qulay chegara, hududlarini barpo qilishga harakat qildi. Ana shunday ishlar keng ko'lamda amalga oshirilgan hudud Termiz bo'lgan. Termiz Buxoro amirligining Afg'oniston bilan chegarasi savdo-iqtisodiy jihatdan qulay bo'lgan strategik xudud edi. O'rta Osiyoda harbiy-strategik holatni yaxshilash uchun Buxoro-afg'on chegarasida bir necha tayanch punktlarni tuzishga xarakat boshlangan.

Darhaqiqat, 1888-yilda shu maqsadda Amudaryo-Kerki istehkomi qurilgan va harbiy garnizon barpo etilgan edi. Ammo bu istehkomning joylashgan o'rni bosh yo'ldan chetdan bo'lgani, noqulay iqlimiy sharoitlar garnizon aholisi safidan ko'pgina odamlarning bezgak kasalligidan o'lganligi, daryo qirg'og'ida paydo bo'lgan shaharni muntazam ravishda suv yuvib ketishi natijasida yangi savdo markazining to'xtab qolganligi sababli Amudaryoning yuqori oqimida yangi istehkom qurish uchun joy izlana boshlangan edi. Bu masala muhokama qilinib,


Surxonning Amudaryoga quyilishida ko'hna Termiz xarobalari yaqinidagi joyda istehkom qurish uchun bir to'xtamga kelindi. Bu yer Kerki istehkomidan 200 chaqirim uzoqda turardi[1].

Bu joyning umumiy tavsifi shundan iboratki, u ochiq qum tekislik bo'lib, shimol tomondan unchalik baland bo'lmagan tog' tarmoqlari bilan o'rab olingan, ular Amudaryoga unchalik sezilarli bo'lmagan nishablikda pasayib kelgan. Pattakesar* tekis qirg'og' birmuncha tepalikka aylangan va daryo bo'yida joylashgan. 13-Turkiston muntazam batalyoni kazarmalari imoratlaridan iborat bo'lgan hozirgi Termizdagi joylar Amudaryo tomonidan botqoqli tasma bilan o'ralgan sariq tuproqli ochiq tekislikda joylashgan edi. Termiz atrofida istiqomat qiluvchi aholi doimiy ravishda Amudaryo injiqliklariga bardoshli bo'lgan. Pattakesar Amudaryo kechuvida joylashganligi sababli Rossiya imperiyasi muhim strategik nuqta (Amudaryo sohilidagi eng muhim nuqtalar qatorida Kerki va Kelif) sanalgan[1].

Ayniqsa, Rossiya imperiyasi bilan Buxoro amirligi o'rtasida 1873-yil 28-sentyabrda tuzilgan shartnomadan keyin unga e'tibor yanada ortdi. Ma'lumki, shartnoma 17 moddadan iborat bo'lib, uning 3-moddasida: "Buxoro amirligiga qarashli Amudaryo qismida Buxoro kemalari va rus paroxodlari, shuningdek boshqa flot kemalari qatorida hukumat hamda shaxsiy kemalarga erkin suzishga ruxsat beriladi" deyilsa, shartnomaning 4-moddasida "Kerak va qulay bo'lgan Amudaryoning Buxoro qirg'oqlarida ruslar o'zining to'xtash joyi va tovar omborlari qurishga xaqlidir", deb yozilgan[2].

1888-yil 23-iyunda imzolangan shartnoma moddalari qayta ko'rib chiqiladi va rus fuqarolari uchun Yangi Buxoro, Chorjo'y va Kerki hududlari asosiy yashash joy sifatida tanlanadi. Bundan tashqari, Amudaryo chegara chizig'i bo'ylab manzilgohlar barpo etish ko'zda tutiladi. Xususan, Termizning Amudaryo qirg'og'iga tutashgan Pattakesar qishlog'i yonida ruslar istiqomat qilishi uchun yashash joylarini qurish boshlanadi. Shundan so'ng Termizga telegraf tarmoqlarini tortib kelish boshlanadi. Ayniqsa, Amudaryo suv yo'li paroxodchiligi tashkil etilganidan so'ng ish yanada rivojlanadi[2]. Bu davr haqida ko'pgina ilmiy tadqiqot asarlarida ham ma'lumotlar mavjud[3].

1893-yil 15-yanvarda Termiz Buxoro amiri tomonidan Rossiya podshosi ixtiyoriga berilganidan so'ng bu yerda harbiy qismlarni



joylashtirish ishlari olib borila boshlandi. Bu xududni rivojlantirish uchun Rossiya hukumati barcha tadbirlarni amalga oshira boshladi. Bizga yaxshi ma'lumki, Rossiya imperiyasining Turkistondagi agrar siyosatidan ko'zlangan bosh maqsad paxta masalasini hal etish edi, bu ishni amalga oshirish uchun sug'orish tizimida muhim tadbirlar amalga oshirish talab etilardi. Imperiya ma'murlari dastlabki yillarda rus askarlari va aholisi istiqomat qilayotgan shahar va qishloqlarning suv ta'minotini yaxshilash hamda oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirish uchun sug'orish tizimi tadbirlarini amalga oshirdi. Aynan bu holatga Termiz shahrida amalga oshirilgan ishlar yaqqol misol bo'la oladi. Rossiya imperiyasi hukumati Surxon vohasi hududlarining Afg'oniston davlati bilan chegaradoshligi va bu davlat orqali inglizlarning Buxoro amirligi hududlariga nisbatan g'arazli talablari oshib borayotganligini hisobga olib, Termiz shahrini mustahkam egallab, muhim tadbirlar amalga oshirila boshlangan edi.

Eng muhim vazifa harbiy shaharning suv ta'minoti masalasi edi. 1889-yildayoq Termiz shahri atrofida 10 ming desyatina yerni Surxon daryosining irmog'i bo'lgan Qizilsuv bilan sug'orish borasida tadbirlar ishlab chiqila boshlagan[4]. Olingan ma'lumotlarga ko'ra, doimiy suv toshqini davrida harbiy uchastkalar qarshisidagi botqoqli tekisliklar 15-20 sarjingga yaqin ular oqim yo'nalishiga ko'ra tik qiyalab o'tgan. Termiz yaqinidagi botqoqlik pog'onama-pog'ona tekis maydonlarning umumiy eni 1-1/2 chaqirimdan oshmas edi[5].

13-batalyon kazarmalari daryodan 2 chaqirimga yaqin yerda turganligini hisobga olib, aytish mumkinki, Amudaryoning harbiy uchastkalariga yaqin holati haqida aytilgan. Pattakesardan 6-7 chaqirimlarda Termiz hududi keng hududda joylashgan. Bu yerda bir qancha minoralar bo'lib, ular atrofida rangli sirlangan g'ishtdan qoplamalar saqlab qolingan. Manbalarda shahar haqida yana shunday deyiladi: Termiz shahri yaqinida Zo'yinobod qo'rg'oni bor. Amudaryo sohilidagi eng katta shahar Termiz bo'lib, u Samarqanddan Mozori Sharifga va Qobulga boradigan to'g'ri yo'lda joylashgan. Termiz qadimdan Buxoro -Afg'on chegarasining eng janubiy punkti, bundan tashqari, Surxon va Amudaryo bilan himoyalangan joy sifatida juda qulay strategik mavqega egadir[1].

Termiz atrofida sariq tuproqli hosildor yerlarning katta maydoni va qadimgi irrigatsiya

tizimlarining mavjudligi bu yerlarni osongina yana madaniy holatga aylantirish imkoniyatini berdi. Buning uchun esa eski ariqlarni tiklash kerak edi. 1894-yil 12-dekabrda Amudaryo chegaralarini qo'riqlash uchun Pattakesarga chegarachi qismlarning 31-Amudaryo brigadasi keltiriladi[6].

1897-yilda maxsus komissiya tomonidan istehkom uchun joy tayinlangan va harbiy qism uchun kazarma qurishga kirishilgan. Shuni ham eslatib o'tish kerakki, birinchi bo'lib Termizga shahar va mustahkam qal'a sifatida o'z etiborini qaratgan kishi Amudaryo brigadasining sobiq qo'mondoni polkovnik S. Kostyevich edi. U Termiz yaqinidan joy tanlab, unda chegara brigadasi shtabi bilan birga cherkov, kazarmalar, shtab ofitserlari xonadonlarini joylashtiradi, shuningdek ular uchun gospitallar barpo qilinadi[1].

Harbiy qismlar qurilishi uchun dastavval mahalliy aholidan 40 desyatina yer sotib olingan edi. Ammo bu yer uchaskasi juda oz bo'lib, avval boshida qaror qilingan edi. So'ngra shu narsa malum bo'ldiki, uchastkani sug'orishi yomon qurilgan Solihobod arig'iga qaratilgan. Shuning uchun sotib olish o'rniga Buxoro amirligidan katta yer uchastkasini so'rab olish mo'ljallangan edi. Bu yer uchastkasini sug'orish uchun yangi sug'orish tizimini qurish lozim edi. Masalani joyida aniqlab olish uchun 1898-yilda Termizga injener Gelman ekspeditsiyasi keladi. Unga yuklatilgan asosiy vazifa Termiz yaqinida umumiy maydoni qariyb 14750 desyatina gacha bo'lgan yerlarni sug'orishning dastlabki loyihasini tuzib chiqish kerak edi. Buning uchun 130 ming rubllik yangi ariq qurilishi ham mo'ljallangan edi. Bu masalani keyinchalik bir qator komissiyalar ham ko'rib chiqdi va nihoyat 1899-yilda armiya qo'mondoni general Duxovskiyning raisligida maxsus kengash o'tkaziladi. Kengash quyidagicha yakuniy qaror qabul qiladi: Rus hukumati Solihobod arig'idan boshlanadigan yangi va ishonchli ariq qurilishi bilan birga mavjud barcha Pattakesar va Solihobod kanallari sug'orish tizimlarini yaxshilash va kengaytirishni o'z qo'liga olishi zarur bo'lgan[1].

Ushbu qaror natijasida tegishli talabnoma qabul qilinadi va Buxoro amiri rus xukumatiga 9000 desyatina yer uchastkasini tekinga beradi. Bu yerlar, bir tomondan Amudaryo bilan chegaradosh, ikkinchi tomondan Ko'hna Termiz xarobalaridan Surxon daryosigacha o'tkazilgan

to'g'ri liniya bilan tutash edi.

Bu ulkan yer uchastkasining rus hukumati ixtiyoriga o'tkazilishi munosabati bilan harbiy injener Gelmanga mazkur loyihani ko'rib chiqish topshirildi. U yangi yerlarni atroflicha o'rganish orqali Termiz yerlarini sug'orish tizimini qayta ko'rib chiqishi lozim edi. 1900-yilda injener B. I. Kastalskiyning ekspeditsiyasiga ruxsat beriladi. U barcha sug'orish tizimi Surxon daryosi va Solihobod arig'ining holati, suv oqimi, tezligi, burg'ilash asosida daryo tubi va tuprog'ini aniqlash va Surxon daryosini Termizdan 120 chaqirim uzoqlikda ikkala qirg'og'i bo'ylab joylashtirish lozim edi. Shu bilan birgalikda, injener B.I.Kastalskiy tomonidan Termizni Surxon daryosidan chiqarilgan bosh to'g'on, tindiruvchi basseynga ega bo'lgan maxsus ariq orqali sug'orish loyihasi tuzildi. Surxon suvi juda loyqa bo'lganligi uchun shunday qilingan edi. 1901 ilda yangi ariq qurilishi loyihasi tasdiqlangan. Termizni sug'orish masalasi davlat ahamiyatiga molik masala bo'lgan. Chunki qulay shart-sharoitlar tufayli bu yerda Afg'oniston bilan savdo aloqalarini olib borish imkonini beradigan katta savdo shahrini yaratish mumkin bo'lgan. Termiz yaqinidagi Pattakesarning rivojlanishi shuni yaqqol isbotlaganki, bu hudud katta savdo imkoniyatlarini yaratgan. Harbiylar bilan birgalikda bu yerda savdogarlar ham kelib joylashgan va uylar qurib o'z do'konlarini ochishgan[7]. Shuning uchun ham kelajakda Termizni ulkan shaharga aylantirish uchun barcha imkoniyatlarini bajarish kerak bo'lgan. Bu imkoniyatlarni bajarish zamirida, albatta, iqtisodiy manfaat sug'orish tizimi yotardi. Bu ishlarni bajarish uchun ikkita lavozim irrigatsiya ishlari mudiri va ariq ishlarini yaxshi biladigan oqsoqol lavozimi ta'sis etiladi. Termiz-Pattakesarini ko'p sonli aholi yashaydigan shaharga aylantirish uchun barcha xarajatlar amalga oshiriladi. Rossiya imperiyasi hukumati bu ishlarni amalga oshirish uchun 57 ming so'm ajratgan edi[5]. Sug'orish tizimini yaxshilash uchun bir qancha mutaxassislar taklif etiladi. Ana shunday ulkan loyihani amalga oshirganlardan biri harbiy injener A.G.Ananyevdir. Injener A.G.Ananyevning xizmatlari tufayli dastlabki bu rus qarorgohi uch yil davomida Afg'oniston va Buxoro amirligining asosiy harbiy chegara shahar qarorgohi sifatida barpo etilgan[8].

A.G.Ananyev Termizning sug'orish tizimi ustida ishlab, Sherobod bekligining Termizgacha tutashgan yerlarini sug'orish tizimi ustida


ham izlanishlar olib bordi. Harbiy injenerlar L.Poslavskiy, B.N.Kastalskiy, Ye. Yermolev va A. G. Ananyevlarning mahalliy aholi tili, madaniyatini a'lo darajada bilishi natijasida Termiz va uning atrofida turli ulkan imkoniyatlar vujudga keladi. Keyinchalik rus hukumati tomonidan bu yerga aksionerlik korxonalarini qurish masalasi ham ko'zda tutila boshlangan edi. Bunda asosan paxta ekish uchun unumdor yerlarni sug'orish maqsadida tashkil etilgan korxonona-jamiyatlar turgan[1].

Pattakesar hududi asosiy kechuv joyi sifatida ahamiyatli hisoblangan. U Samarqanddan Qobul va Hindistonga boradigan asosiy kechuv savdo yo'lida joylashgan. Bu jonlangan savdo harakati natijasida Hindistonning ko'pgina mahsulotlari choy, doka, nil bo'yog'i, marjon kabilar bir yilda 0,5 mln rubl summadan ziyod hajmda tashib o'tilgan. Pattakesar Sherobod bekligining shimoliy Afg'onistonning muhim savdo va ma'muriy markazi bo'lgan Mozori Sharif bilan bevosita savdo-iqtisodiy aloqalari uchun muhim ahamiyat kasb etgan [4].

Termizda bo'lgan yana bir rus mutaxassisi imperator geografik jamiyati vakili sayyoh R.Yu.Rojevitsa Amudaryo bo'yida Pattakesarda qurilgan Termiz tabiiy chegarasi haqida ma'lumot berib o'tgan. Shuningdek, Pattakesardagi bozor, unda sotilgan mollar va Armaniston, Eron va boshqa davlatlar savdogarlari haqida ma'lumot berib o'tadi. Shuningdek, sayyoh Termizda 1906-yilda quduqli ariq qurib bitkazilganligi xaqida ham ma'lumot berib o'tgan[9]. Yana shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, Pattakesar Afg'oniston bilan savdo aloqalar yaxshi rivojlanishida muhim o'rin tutgan. Chunki asosiy bojxona posti shu yerda joylashgan bo'lib keltirilgan mollar shu yerda qadoqlangan va chegara posti orqali afg'on savdogarlariga yetkazilgan[10].

Tarixdan ma'lumki, Surxon vohasidagi ilk sanoat korxonasi 1910-yilda barpo qilingan bo'lib, uning ishlash elektr tokiga bo'lgan ta'minot dastlab 60 ot kuchiga ega bug' mashinasi yordamida amalga oshirilgan bo'lsa, keyinchalik 50 ot kuchiga ega bo'lgan dizel yordamida amalga oshirilgan. Termiz shahrining harbiy boshlig'i podpolkovnik Krichinskyy elektr stansiyasi qurish to'g'risida mahalliy korxonona egasi N.F.Nerodeskiyga buyurtma berdi va shartnoma imzoladi.

1914-1917-yillarda mahalliy korxonona egasi N.F.Nerodeskiy bilan Turkiston general-gubernatori o'rtasida Pattakesar (hozirgi



Termiz)ni elektrlashtirish to'g'risida shartnoma imzolaniib, buyurtma berilgunga qadar birinchi jahon urushi (1914 - 1918 yy) boshlanib ketdi. Natijada Termiz shahrini "yoritish davri" shu tariqa to'xtab qoldi.

1927-yilning 17-iyulida Surxondaryo okrugi reja komissiyasi qabul qilgan 10-sonli qarorida Pattakesar, Termiz va Sherobod shahrida elektrostansiya qurish to'g'risida qaror qabul qildi. Shu yilning 14-noyabrda esa Pattakesar elektrostansiyasini kengaytirish uchun mahalliy byudjetdan 75000 so'm pul ajratish to'g'risida ham qaror qabul qildi. 1928-yilga kelib, Termiz shahrida birinchi marta 100 ot kuchiga ega bo'lgan dizel ishga tushirildi[11].

Xulosa. Pattakesar asosiy savdo hududi ekanligi bilan ajralib turgan balki Rossiya imperiyasining asosiy siyosiy, harbiy chegara xududi jihatidan strategik ahamiyatga ega bo'lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Д.Н. Логофет. Орошение Термеза // Туркестанский сборник-Т. 497. - С. 172.
2. Д.Н.Логофет. Страна безправия. (Бухарское ханство и его современное состояние) - СПб., 1909. – С. 217.
3. Yangiboeva Dilnoza Uktamovna. (2020). The Effect Of The Russian Empire On The Political Life Of The Emirate Of Bukhara (1868-1917). The American Journal of Social Science and Education Innovations, 2(10), 171-177.
4. Д. Н. Логофет Бухарское ханство под русским протекторатом России. Т.: И. - СПб., 1911. - С. 8
5. Туркестанский сборник. Т. 474. - С. 33.
6. Mirzayev Z., Qobulov E. Surxondaryoda paxtachilik va Termiz paxta tozalash zavodi tarixi. -Termiz: Jayhun, 1996. 8-9 b.
7. Д.Н.Логофет. На Границах Средней Азии Русско-Афганска граница книга II СПб., 1909. - с.202-203.
- 8.Туркестанский сборник. Т. 497.–С.125-126.
9. Рожевица Р.Ю. Поездка в Южную и Среднюю Бухару в 1906 г.// Туркестанский сборник. Т. 504. -С.48.
10. "Туркестанские ведомости". Т. 1910. № 204 12 сентябр
11. Sitara Boboeva Ruzimakhmatovna. (2020). Surkhandarya Region's Electricity Lines. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 2(10), 165-170.